

## IDISH-TOVOQ LEKSIKASINI BILDIRUVCHI AYRIM BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI (“RAVSHAN” DOSTONI MISOLIDA)

**Mahmadiyev Shavkatjon Suyunqulovich**

Samarqand davlat universiteti dotsenti

**Rasulova Fazilat Hasan qizi**

Samarqand davlat universiteti filologiya 4-kurs talabasi

[rasulovafazilat24@gmail.com](mailto:rasulovafazilat24@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, jumladan, “Ravshan” dostonidagi ba’zi uy-ro‘zg‘or buyumlarini ifodalovchi til birliklari leksik-semantik jihatdan tadqiq qilinib, ayrim mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** leksika, folklor, til, lug‘at, doston, uy-ro‘zg‘or buyumlari, izohli lug‘at.

### LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF INDIVIDUAL UNITS REPRESENTING THE LEXICON OF DISHES (ON THE EXAMPLE OF THE EPIC “RAVSHAN”)

### ABSTRACT

The article examines the lexical-semantic study of the Uzbek folklore, including the language units that represent some of household items in the Ravshan epic, and makes some comments.

**Key words:** vocabulary, folklore, language, epic, annotated dictionary, household items.

### KIRISH

Inson va jamiyat o‘rtasidagi aloqa quroli bo‘lgan til qancha-qancha davrlar silsilasidan o‘tib kelmoqda. Bu vaqtlar davomida jamiyatdagi o‘zgarish va taraqqiyot bosqichlari tilning lug‘at tarkibiga ham ta’sir ko‘rsatgani ma’lum. Davrlar, jamiyatdagi insonlar, ayrim urf-odatlar o‘z rivojlanishi davomida tilga bevosita va bilvosita ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. Tildagi har bir kichik, yoki ahamiyati ulkan lug‘at o‘zgarishlari leksikologiya bo‘limi orqali chuqur o‘rganiladi. Tildagi har bir so‘zning atash ma’nosi va uning etimologiyasi, o‘zining qo‘llanilish doirasi va davr nutqayi nazaridan muhim

ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham har bir leksik birlik millatning kechasi va bugunini bog'lovchi muhim ko'prik vazifasini o'taydi.

Leksikologiyadagi bu birliklar orasida, ayniqsa, maishiy leksikalar o'zining ahamiyati jihatidan tadqiq etish lozim bo'lgandan mavzulardan biridir. Maishiy leksik birliklar xalqimizning hayoti bilan chambarchas bog'liqligi uchun ham o'rganilish, tadqiq etilishga arziydi. Bu turdagi birliklarni o'rganishda xalq og'zaki ijodi namunalari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida maishiy leksika muayyan darajada qiyosiy-tarixiy, leksik-semantik jihatdan alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan bo'lib, unga uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak, taqinchoq va zeb-ziynat nomlarini ifodalovchi til birliklari kiradi. Xususan, o'zbek tilining maishiy leksikasi L.X. G'afurov tomonidan maxsus o'rganilgan. [3:13] Bundan tashqari, Shoira Usmonova ham o'zining "Oltay tillarida bosh kiyim leksikasi nomlari" deb nomlangan tadqiqot ishida aynan bosh kiyim maishiy leksikasi namunalardan ayrim turlarini tahlil qiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek xalq og'zaki ijodi, jumladan, "Ravshan" dostonidagi idish-tovoq leksikasini bildiruvchi ba'zi til birliklari leksik-semantik jihatdan tahlil etilgan. Unda qiyosiy-tarixiy, tavsifiy metodlardan foydalanilgan.

### NATIJALAR

O'rganishimizning asosiy manbasi hisoblanuvchi "Ravshan" dostonida ham maishiy leksika namunalari mavjud bo'lib, doston matnidagi maishiy birliklardan uy-ro'zg'or buyum nomlarining tahlil etilishi juda samarali hisoblanadi. Bu birliklarni o'rganishda ular bevosita izohlayotgan ma'nolarini, ularning etimologiyasini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. "Ravshan" dostonida uy-ro'zg'or buyumlaridan *kosa*, *lagan*, *piyola*, *mehtara* va boshqa shu kabi til birliklari ishlatilgan. Bu birliklarni biz shartli ravishda quyidagicha tasnifladik:

- 1) *suyuqlik solinadigan idish nomlari*;
- 2) *quyuq taomlar solinadigan idish nomlari*;
- 3) *uy-ro'zg'or buyumi sifatida foydalaniladigan buyum nomlari*;

#### **Suyuqlik solinadigan idish nomlari.**

Dastlab e'tiborimizni qaratadigan so'z bu *kosa* atamasidir. ***Kosa*** [f.] Piyoladan kattaroq, suyuqlik va turli ovqatlar solib ichish uchun ishlatiladigan idish. [3:410] Hozirgi adabiy tilda ham o'zining qo'llanilish o'rni, mazmunini saqlagan bu leksema tilimizda faol. Dostonda sharob solib ichiladigan idish ma'nosini anglatgan bo'lsa,

hozirda ham bu buyum nomi suyuq taomlar solinadigan buyum nomini bildiradi, hamda ro‘zg‘orda ishlatiladi.

*“Oltin kosa gulgun sharob,  
Ichildi maydon ichinda.  
Ajallining kafan to‘ni,  
Bichildi maydon ichinda” [7:560].*

Doston matnida **mehtara** leksemasi ham uchraydi. Bu so‘z ayrim manbalarda *mesh*, *sanoch* degan ma‘nolarni anglatadi, deyilgan. Bu so‘zning izohli lug‘atda aynan ma‘nosi keltirilmagan. Dostonda suv solinadigan idishni ifodalash uchun qo‘llanilgan.

*“Mehtaraga suv olib,  
Chaqmog‘iga quv olib,  
Yo‘lga tushdi bek Ravshan,  
Otasidan duo olib”. [7:390]*

Xalq dostonlari, xususan, “Alpomish” dostoni matnida ham bu leksema mehtar deb ishlatiladi. “Alpomish” dostonining izohli lug‘atida quyidagicha ta‘riflangan: *Mehtar – teridan qilingan suv idish.*

*“Mehtariga suv olib,  
Chaqmog‘iga quv olib “. [2:59]*

Yana bir tahlil qilinadigan idish nomi ko‘za so‘zidir. **Ko‘za** – suv solish, tashish uchun ishlatiladigan qorni keng, bo‘g‘zi ingichka, bir tomonida dastasi bor idish. [5:447] Dostonda suv solinadigan idish ma‘nosida ishlatilgan.

*“Ravshanbek bog‘ning ichidagi qushlardan yorini so‘rab turib edi, bir pilla shiq etib bog‘ning devori ochildi. Ravshan qarasa, bir kampir, qo‘lida ikki mo‘ndi ko‘za kelayotibdi”. [7:398]*

Doston matni tarkibida uchraydigan yana bir idish nomi **optova** so‘zini tahlil etamiz. Bu birlikning optova shakli shevada aytilishi bo‘lib, adabiy tilda obdasta shaklida ishlatiladi. *Obdasta* so‘zi [f. qo‘l (yuviladigan) suv] Ro‘zg‘or buyumi; yuz-qo‘lni yuvish uchun ishlatiladigan uzun va ingichka jo‘mrakli, qorni keng, bo‘g‘zi tor idish.[6:72] Uy-ro‘zg‘or buyumi hisoblangan bu atama bugungi kunda ham qo‘llaniladi. Dostonda bozor ta‘rifida aynan shunday idish sotiladigan bozor borligi aytib o‘tilgan.

*“Optovalar, mis bozori,  
Beda bozor, xas bozori.  
Kadi bozor, nos bozori,  
Moxxov bozor, pes bozori,  
Qalpoq bozori qaysidi(r)”. [7:424]*

**Piyola** [f. yun. Phiale – suv ichiladigan yassi kosacha] Tubidan yuqoriga tomon kengayib boradigan kosadan kichik, taglik idish (asosan choy ichish uchun ishlatiladi). [6:256] Dostonda keltirilgan piyola soʻzi may ichish uchun moʻljallangan idish maʼnosida qoʻllangan va piyolaning otindan yasalganligi aytib oʻtilgan.

“*Qirq yigitni yigʻib, dovulni tuyib, oltin piyolaga maylar quyib, araqqa bolni qotib, bolga araqni qotib, qirq yigitni yigʻdirib, silovsin toʻn kiydirib, kuniga kechkisin sergoʻsht qilib, sermoyli palovga toʻydirib, semiz qoʻydan soʻydirib... davrini surib umr oʻtkarar edi*” [9:361]

### Quyuyq taomlar solinadigan idish nomlari:

**Lagan** [f. – togʻora, idish; shamdon] 1 Quyuyq taomlar solish uchun moʻljallangan, tarelkadan katta yassi idish. 2 Shevada esa, kosadan katta, ichi chuqur sopol idish, tovoq. [5:483] Dostonda bu leksema aynan taom solinadigan idishni emas, tilla solishga moʻljallangan buyum maʼnosida kelgan. Qadimda ham keng muomalada boʻlgan bu til birlik hozirda ham saqlanib qolgan va uy-roʻzgʻor buyumi sifatida ishlatiladi.

“*Ravshanbek otini haydab, yoʻrtib, doʻngning ustiga chiqb qarasa, bir toʻp, bari oʻziday yosh, xushroʻy, qalamqosh bola, barining qoʻlida bir lagancha tillasi bor, yaxshi ot ustida bir tepaning ustida tillasi qoʻlida qator boʻlib – saf tortib, otning boshini barobar qilib, osmonga qarab turibdi*” [7:410]

Lagan soʻzi haqida Eshqobil Shukurning qalamiga mansub “Bobo soʻz izidan” asarida quyidagicha fikrlar keltirilgan:

“Asosan quyuyq ovqat solinadigan yassi idish maʼnosini anglatgan “lagan” soʻzining tub ildizi “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati” da izohlanishicha, “lagʻun” soʻzidan kelib chiqqan. Qadimda “lagʻun” soʻzi “yogʻochni oʻyib yasalgan idish” degan maʼnoni bildirgan”. [1:245]

### Uy-roʻzgʻor buyumi sifatida ishlatiladigan buyumlar:

Biz tahlil etadigan navbatdagi leksek birlik surpa – supra soʻzidir. **Surpa** [a. – safar ozuqasi (ovqati); tushlik dasturxon, supra] Xamir yoyish, non yasash uchun moʻljallangan, odatda oshlangan teridan qilinadigan dasturxonsimon roʻzgʻor buyumi. [6:589] Asar matnida bu buyum nomi bozor taʼrifida surpa sotiladigan bozor borligini ifodalash uchun keltirilgan.

“*Bugʻdoy ham arpa bozori,  
Paxtali koʻrpa bozori,  
Qoʻy teri- surpa bozori,  
Sersavdo turpa bozori,  
Qalpoq bozori qaysidi(r)*”. [7:425]

Supra soʻziga “Bobo soʻz izidan” asarida shunday taʼrif berilgan:

*“Tilimizdagi xamir yoyish, non yasash uchun ishlatiladigan dasturxonsifat ro‘zg‘or buyumi “supra” deb ataladi. Ilgarilari oshlangan mol terisidan tayyorlanar edi. Men kichikroq gilamday keladigan doira shaklidagi supralarni ko‘rganman. Suprani nonday, dasturxonday aziz tutishardi. Hozir ham yangi tushgan kelinga ,avvalo, suprada xamir qordirish odati mavjud...*

*Asli arab tilidan kelgan “sufra”so‘zining tub ildizi “ochdi” ma‘noni anglatadi.Shuningdek bu so‘zning “safar ozuqasi”, “tushlik dasturxon” degan ma‘nolari borligi ham manbalarda ta‘kidlangan.*

*Xalq tilida “supraquloq” degan so‘z ham ko‘p ishlatiladi. “Supraquloq” so‘zi, asosan, bolalarni erkalash ma‘nosida qo‘llaniladi”. [1:243].*

Bundan ko‘rindaki, supra so‘zi nafaqat buyum nomi sifatida, balki xalqimizning ayrim urf-odatlarini, an‘analari va milliy qadriyatlarini namoyon etuvchi til birligi ekanligining guvohi bo‘lamiz.

## **XULOSA**

Doston matnida tahlil etilgan har bir idish-tovoq leksemalari til boyligimizni ochib berish bilan bir qatorda, milliyligimizni, urf-odatlarimizni ham o‘zida namoyon etmoqda. An‘anaviy qadriyatlar, xalqning turmush tarzi, ijtimoiy holati va tili, shevalarini ifodalagan har bir til birligi hozirgi o‘zbek adabiy tili, o‘zbek xalqi yashash tarzini taqqoslab o‘rganishdagi asosiy muhim manbadir. Shu jihatdan ham ularning har birini leksik, etimologik tadqiq etish juda samarali va muhim vazifalarimizdan biri desak, adashmagan bo‘lamiz.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Эшқобил Шукур. Бобо сўз изидан. – Тошкент, 2018.
2. Мирзаев Т. ва бошқалар. “Алпомиш” достонининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2007.
3. Усмонова Ш. Олтой тилларида муштарак маиший лексика. –Тошкент, 2010.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V томлик, 1-том. – Тошкент, 2007.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V томлик, 2-том. – Тошкент, 2007.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V томлик, 3-том. – Тошкент, 2007.
7. Булбул тароналари. V томлик, 2- том. – Тошкент, 1972.